

TA'LIM TIZIMI UCHUN PEDAGOGLARNI TAYYORLASH-DOLZARB MUAMMO SIFATIDA

Yunusova Xusnora Shuxrat qizi,
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti "Maxsus pedagogika" kafedrasida (PhD)
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.052>

Annotatsiya. Ushbu maqolada kadrlar tayyorlash masalasi hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri ekanligi haqida bayon etilgan. Ta'lim tizimiga berilayotgan e'tibor, xorijiy tajribalar asosida texnik yechimlar masalasi tahlil qilingan. Yangilanayotgan o'qituvchi mavqeyi masalasi, respublika ta'lim tizimining ahvoli, tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim, pedagog, kadr, innovatsiya, metod, uslub, yo'nalish, jarayon, ko'nikma, malaka

ПОДГОТОВКА ПЕДАГОГИ ДЛЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ КАК ОГРОМНАЯ ПРОБЛЕМА

Юнусова Хусноры Шухрат кизи,
Чирчикский государственный педагогический университет, кафедра «Специальная педагогика» (PhD)

Аннотация. В данной статье указано, что вопрос подготовки кадров является одной из актуальных проблем. Уделено внимание системе образования, проанализирован вопрос технических решений на основе зарубежного опыта. Показан вопрос обновленного статуса учителя, состояние системы образования республики, а также основные направления развития системы.

Ключевые слова: образование, педагог, кадры, инновация, метод, метод, направление, процесс, умение, квалификация.

TRAINING OF TEACHERS FOR THE EDUCATION SYSTEM AS A HUGE PROBLEM

Yunusova Xusnora Shukhrat kizi,
Chirchik State Pedagogical University, Department of «Special Pedagogy» (PhD)

Annotation. This article states that the issue of personnel training is one of the current problems. The attention paid to the education system, the issue of technical solutions based on foreign experiences was analyzed. The issue of the updated status of the teacher, the state of the republic's education system, and the main directions of system development are shown.

Key words: education, pedagogue, personnel, innovation, method, method, direction, process, skill, qualification.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar asosida jamiyatda o'qituvchilik kasbining mavqeini yanada mustahkamlash, sohaga ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsiyalarni jalb qilish, ta'lim, fan, ishlab chiqarish izchilligini ta'minlash, ta'limning asosiy va yordamchi tuzilmalarini zamonga mos holda takomillashtirish, ta'lim jarayonida o'zini namoyon qila olgan o'quvchilar bilan ish tizimini rivojlantirish kabi yo'nalishlarni qamrab olgan.

Bugungi kunga kelib, jahonda yangiliklarga va asl texnologik yechimlarga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Shuni inobatga olgan holda, integratsiyalashuv jarayonining yangi, zamonaviy usullaridan biri sifatida ommalashib borayotgan klaster yondashuvining ilmiy-pedagogik jihatlarini tahlil qilish, uning samarador usul ekanligini ilmiy-nazariy

asoslab berish, amaliyotga joriy etish yo'llari bo'yicha takliflar ishlab chiqish bugungi kun pedagogikamizning bosh masalalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu borada xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tizimli ishlar ushbu tushuncha muayyan subyektlarning o'zaro hamkorlik aloqalarini tizimli shakllantirish va ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida birgalikda faoliyat yuritadigan yagona tashkiliy tuzilmaga birlashishini anglash jarayonini takomillashtirishni ko'rsatmoqda.

Respublikamiz oliy ta'lim tizimida fanlarni o'qitish jarayoniga jahonning ilg'or tajribalarini joriy etish, uzluksiz ta'lim tizimida o'zaro manfaatdor hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha, maqsadlarni integratsiyalashtirish, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishning me'yoriy asoslari yaratildi. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da "Fan, ta'lim, ishlab chiqarish integratsiyasi asosida turli ta'lim xizmatlari sifatini takomillashtirish, ta'lim mazmunini individuallashtirish, variativlashtirish" ustuvor vazifalar sifatida belgilab olindi [3].


O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosati umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyillari, inson huquqlari, ta'limning gumanistik mohiyati, har kimning bilim olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarining kafolatlanishi, ta'lim olishdan teng huquqlilikdan foydalanishga tayanadi [1].

Ta'limni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan: ta'lim sohasida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining kafolanishi; ta'lim olishda tenglik, shu jumladan, rivojlanishida maxsus psixofizik xususiyatlari bo'lgan shaxslarga, ularning sog'lig'i va bilim qobiliyatlariga muvofiq, asosiy ta'limning barcha darajalarida va qo'shimcha ta'lim olishda shart-sharoitlar yaratish; rivojlanishida maxsus psixofizik xususiyatlari bo'lgan shaxslarga maxsus ta'lim olish uchun maxsus shart-sharoitlar yaratish va ularga korreksiyalovchi- pedagogik ko'mak berish; shaxsning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini, shuningdek shaxsni shakllantirishda, malakali kadrlarni tayyorlashda jamiyat va davlatning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish [1].

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasining rivojlanishi davlat siyosati umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyillari, inson huquqlari yuqori darajada ekanligi, ta'limning gumanistik mazmun mohiyati, har bir insonning bilim olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarining ta'minlab berilganligi, ta'lim olishdagi teng huquqlilikning kafolatlanishiga tayanadi [2].

Ta'lim sohasini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi: ta'lim sohasidagi fuqarolarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining kafolatlanganligi; ta'lim olishdagi tenglik, shu bilan birga, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarga, ularning sog'lig'i hamda bilim qobiliyatlariga asosan, asosiy ta'limning barcha jabhalarida va qo'shimcha ta'lim olishda shart-sharoitlar yaratilganligi; ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarga maxsus ta'lim olish uchun shart-sharoitlar yaratish va ularga pedagogik-psixologik hamda korreksion ko'mak berish; shaxsning ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini, shuningdek shaxsni kamol topishida, yetuk kadrlarni tayyorlashda jamiyat bilan birga davlatning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish [2].

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga o'z ta'sirini o'tkazuvchi ustuvor yo'nalishlari:



Davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi yosh avlodni aqlan teran, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, har tomonlama rivojlangan komil shaxs sifatida voyaga yetkazish hisoblanadi. Buyuk mutafakkir olimlarimizning asarlarni tahlil qilar ekanmiz, ular o'z ma'naviy meroslari orqali imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim tarbiyasi mazmun mohiyatining boy metodologik asoslari yaratilganligi fikrimiz dalilidir. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Mir Alisher Navoiy [129,130] kabi buyuk mutafakkirlarimizning barchasi jamiyat yaxlit bir butunlik deb qarab, barcha insonlarni teng deb hisoblaganlar. Binobarin, alohida yordamga muhtoj bolalarga ham jamiyatning teng huquqli a'zodek ta'lim tarbiya berish hozirgi zamonga o'xshab, XI-XII asrlardayoq buyuk Sharq mutafakkirlarining diqqat markazidan chetda qolmagan. Juda ko'plab mamlakatlarda alohida yordamga muhtoj bolalarga tarbiya berishda kompensator imkoniyatlarga tayanish va ijtimoiy moslashtirishni to'laligicha yo'lga qo'yish maqsadida umumta'lim maktablarida o'qitish davlat siyosati rejasiga kiritildi. Buning natijasida esa 1990-yilda Tailand shahrida Umumjahon Konferensiya bo'lib o'tdi. Bu konferensiyada "Ta'lim hamma uchun" Umumjahon Dekloratsiyasi qabul qilindi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hozirgi kunda pedagoglarning kasbiy tayyorgarligida kompetentlilik, kontekstlik (mazmun) va shaxsiy-faoliyatli yondashuvlar ustuvor hisoblanadi (A.A.Verbitskiy, O.L.Juk, E.F.Zeyer, I.A.Zimnyaya, D.A.Ivanov, V.A.Kozirev va b.) [125]. Ushbu yondashuvlar doirasida pedagogning inklyuziv ta'limiga tayyorligini shakllantirish mazmuni va vositalari orasida pedagogning o'z faoliyati ma'nosini anglab yetishi bilan bog'liq bo'lgan refleksiv yondashuv muhim rol o'ynaydi. Mazkur yondashuvlar pedagoglarning inklyuziv amaliyotga tayyorligini ta'minlaydigan ilmiy-metodik, tashkiliy-pedagogik va psixologik-pedagogik talablarga eng to'liq javob beradi. Bunda kompetentlilik yondashuvi markaziy yondashuv hisoblanadi. Kompetentlilik yondashuvi bo'lajak va ishlayotgan pedagoglar ta'limi mazmunining bosh elementi bo'lgan har turli masalalarni hal etish va ijtimoiy rollarni va vazifalarni bajarish tajribasini ifodalaydi. Bunday tajriba pedagogda namunalar bo'yicha beriladigan va mashqlar orqali yaxshi o'rganib olinadigan "tayyor" bilimlar va ko'nikmalar asosidagi an'anaviy ko'nikmalar sifatida emas, balki ta'lim oluvchilarni ta'lim jarayonida yaratilgan hayotiy va kasbiy muammolarni o'xshatib takrorlovchi vaziyatlarga jalb qilish orqali ta'limning faol shakllari va metodlari hisobiga shakllanadi".

O'quv-tarbiyaviy jarayon samaradorligi-rentabelligini oshirish, global axborot

jamiyatida ildamlangan o'qitishni va ma'lumot olish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashning eng optimal yo'llaridan hisoblanib, o'quv muhitini axborotlashtirish, qulaylashtirish va jozibadorlashtirishdir. Shunday ekan, nima qilsa, ta'lim sifati oshadi, uning imkoniyatlari ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga yo'naltiriladi? yoki ta'limning qaysi komponentida bo'shliq borki, uni zararsiz manfaatlar kesishuvida bartaraf etish mumkin? kabi savollar yechimiga bag'ishlangan tadqiqotlar zamonaviy pedagogikada ahamiyatli sanalmoqda. Aynan shu maqsadni ko'zlagan holda Chirchiq davlat universitetida "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri" bosh ilmiy mavzu doirasida "O'quv muhiti rentabelligini oshirish va baholashning innovatsion-pedagogik instrumentlari" mavzusida tadqiqot olib borilmoqda.

Rentabellik (nemis tilidan olinga bo'lib, "rentabel"-daromadli, foydali) korxonalar yoki tadbirkorlikning daromaddorligi, samaradorligi, mikroiqtisodiyotda iqtisodiy faoliyatning samaradorligini baholashda qo'llaniladigan tushuncha sifatida iste'molda foydalaniladi. Ya'ni rentabellik korxonalar yoki tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy natijalarini baholashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichdir. Rentabellik biror harakatdan foyda olib ishlashning qiyosiy, ya'ni sarf-harajatlarga nisbatan aniqlanadigan ko'rsatkichi bo'lib, raqamli natijalar bilan ifodalanadi. Odatda bajarilgan ish harakatlari, ketgan energiya quvvati natijalar qo'lga kiritilgan paytgacha ketgan vaqt sarfi qiyoslangan holda samaradorlik baholanadi. Ta'lim jarayonida bu tushunchani qo'llashga ehtiyoj, asosan, ta'lim muassasasi jozibadorligini oshirish uchun qanday parametrlar bo'yicha ish tashkil etish kerak?-degan savolning yechimini topish jarayonida yuzaga keldi. Bizning tadqiqotimiz oliy ta'lim muassasasi reytingini oshirish hamda unda o'qishistagini bildirgan xohlovchilarni ko'paytirish va albatta, bitiruvchilarning samarali faoliyatlari orqali buyurtmachilarni jalb qilish mexanizmlarini joriy etishga qaratildi.

Xulosa. Tadqiqot davomida rentabellikning ta'lim jarayoniga qanchalik mosligi manbalar tahlili orqali o'rganildi. Bu tushunchaning iqtisodiyot sohasidagi ahamiyati aniqlangandan so'ng, ta'lim xizmatlarini klasterizatsiyasida ham to'laqonli va haqli o'rinni egallashi lozim bo'lgan kategoriya darajasida joriylanishi mumkin degan xulosaga kelindi. Shu sababli sifat, imij yoki jozibadorlik kabi tavsiflarga qo'shimcha ravishda, ta'lim-tarbiya amaliyotiga mutlaqo boshqacha ta'rif qo'llanilishi mumkin. Rentabellik eng avvalo, sifatli kadr orqali amalga oshadi. Chunki hozirgi vaqtda ta'lim xizmatlari diversifikatsiyasi kuchaygan davrda pedagoglardan nafaqat ixtisoslik darajalari, balki mutaxassisning raqobatbardoshligini oshiradigan muayyan kasbiy muhim sifatlar-yangi texnologik vositalarni o'zlashtirish va qo'shimcha ixtisoslikni egallash ko'nikmasi hamda kasbiy mobillik malakalari talab etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr. O'RQ-637-son <https://lex.uz/docs/5013007>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlarni strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni <https://lex.uz/docs/3107036>

Qodirova F.U., Yunusova X.Sh., Abdullayeva G.S., Dehqonova M.G'. Capabilities of the cluster environment in the training of teachers for inclusive education // An Interdisciplinary Journal of Neuroscience and Quantum Physics, NeuroQuantology